


### III. QISHLOQ, O'RMON VA BALIQCHILIK XO'JALIGI


2022- yilning yanvar-sentabr oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat) larining umumiy hajmi 16 466,7 mlrd.so'mni yoki 2021- yilning shu davriga nisbatan 101,7 foizni, shu jumladan, dehqonchilik, chorvachilik va bu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 16 042,5 mlrd.so'mni (100,9 foiz), ovchilik va yovvoyi hayvonlarni tutish va bu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 0,1 mlrd.so'mni (102,7 foiz), o'rmonchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari - 105,4 mlrd.so'mni (102,2 foiz), baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari - 318,7 mlrd.so'mni (162,5 foiz) tashkil qildi.

#### Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulotlari (xizmatlar)ning hajmi va o'sish sur'atlari



Xususan, yuqori o'sish sur'ati Qo'shko'pir tumani (113,5 foiz), Urganch tumani (112,7 foiz), Hazorasp (110,7 foiz) va Bog'ot (105,8 foiz) tumanlarida kuzatildi. Aksincha, eng past o'zgarish Shovot (80,1 foiz), Tuproqqa'l'a va Xonqa (91,2 foiz) tumanlarida kuzatildi.


**Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaliklari mahsulot (xizmat)larining  
hududlar kesimida taqsimlanishi (foiz hisobida)**



Viloyatning qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiylajmida hududlar bo‘yicha yetakchilik qilayotgan tumanlarning ulushi Urganch tumanida -12,4 foiz, Hazorasp tumanida-10,4 foiz, Bog‘ot va Qo‘shko‘pir tumanlarida -10,0 foizni tashkil etdi Xiva hamda Urganch shaharlari mos ravishda 0,3 va 2,1 foiz ko‘rsatkich bilan keyingi o‘rinlarni egallashdi, eng kam ulush Xiva shahrida (0,3 foiz) qayd etildi.


Qishloq xo‘jaligi sohasida 2022-yilning yanvar-sentabr oylarida 15 937,5 mlrd.so‘mlik qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarildi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmining o‘sishi 2021-yilning mos davriga nisbatan 100,9 foizni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari 96,6 foizni va chorvachilik mahsulotlari 103,9 foizni tashkil qildi.

**2022- yilning yanvar- sentabr oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**  
*(umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)*




Viloyat qishloq xo‘jaligi mahsulotlarida eng katta ulushni dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari egallagan bo‘lib, 2022- yil yanvar-sentabr oylarida jami qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining 73,6 foizini (2021-yil yanvar-sentabr oylarida – 75,3 foiz) tashkil qildi. Fermer xo‘jaliklari tomonidan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining 22,9 foizi ishlab chiqarilgan (2021- yil yanvar- sentabr oylarida 22,0 foiz), shuningdek, qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi korxonalar tomonidan jami qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining 3,5 foizi (2021- yil yanvar- sentabr oylarida –2,7 foiz) ishlab chiqarilgan.

**Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilikning ulushi**



**Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi**




2022- yilning yanvar-sentabr oylarida 15 937,5 mlrd.so‘mga teng bo‘lgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarildi va ushbu hajmning 6353,1 mlrd.so‘mga teng qismi yoki 39,9 foizi dehqonchilik, 9584,4 mlrd.so‘mga teng qismi yoki 60,1 foizi chorvachilik sohasiga to‘g‘ri keladi.

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari umumiylajmiy hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi tahlil qilinganda, dehqonchilik mahsulotlari yetishtirishda Bog‘ot tumani (47,3 foiz), Xonqa tumani (45,0 foiz) va Yangibozor tumanida (44,9 foiz) yuqori ko‘rsatkich qayd etildi. Urganch shahrida (3,0 foiz), Xiva shahrida (23,4 foiz) dehqonchilik mahsulotlari salmog‘ining kamayganligi qayd etildi.

Shuningdek, chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori ko‘rsatkichlari Urganch shahrida (97,0 foiz), Xiva shahrida (76,6 foiz) Hazorasp tumanida (65,8 foiz) qayd etildi.

## Qishloq xo‘jalik mahsulotlarining hududlar hamda xo‘jalik toifalari kesimida taqsimlanishi




Qishloq xo‘jaligi yalpi mahsuloti ulushining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi tuman va shaharlar kesimida tahlil qilinganda, eng yuqori ko‘rsatkichlar barcha tuman va shaharlarda dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarining hissasiga to‘g‘ri kelishi kuzatildi. 2022- yilning yanvar- sentabr oylari yakunlariga ko‘ra, fermer xo‘jaliklarining qishloq xo‘jaligi yalpi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Yangibozor tumanida (33,3 foizi), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarining eng yuqori ulushi Urganch va Xiva shaharlarida (98,8 va 88,7 foizi), qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Xiva shahrida (11,3 foizi) qayd etildi.

Fermer xo‘jaliklarining qishloq xo‘jaligi yalpi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo‘yicha eng kam ko‘rsatkich esa Yangiariq tumani (15,3 foizi) va Urganch tumanida (18,8 foizi), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarining eng kam ulushi Tuproqqal'a tumanida (64,0 foizi) hamda qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Urganch shahrida (1,2 foizi) Yangibozor tumanlarida (1,8 foizi) qayd etildi.



**Dehqonchilik.** 2022- yilning yanvar- sentabr oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlari umumiy hajmi 6353,1 mlrd.so‘mni yoki jami yetishtirilgan qishloq xo‘jalik mahsulotlarining 39,9 foizini tashkil qildi. 2021- yilning shu davriga nisbatan o‘sish sur’ati 96,6 foizni, jumladan, fermer xo‘jaliklarida 3234,9 mlrd.so‘mni (93,2 foiz), dehqon (shahsiy yordamchi) xo‘jaliklarida 2812,4 mlrd.so‘mni (101,4 foiz), qishloq xo‘jalik faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 305,8 mlrd so‘mni (80,3 foiz) tashkil qildi.

### **Dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarishni hududlar kesimida xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**



■ Fermer xo‘jaliklari

■ Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari


■ Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

**Hosil yig‘imi.** 2022- yilning yanvar - sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 363 237 tonna jami don (109,8 foiz), shundan 287 940 tonna bugdoy (117,3 foiz), 128 126 tonna kartoshka (120,2 foiz), 403 711 tonna sabzavot (100,2 foiz), 107 187 tonna poliz (101,4 foiz), 129 900 tonna meva (103,1 foiz), 35 578 tonna uzum (103,6 foiz) yetishtirildi.




**Chorvachilik.** 2022- yilning yanvar- sentabr oylarida chorvachilikda ishlab chiqarilgan mahsulotlar umumiy hajmi 9 584,4 mlrd so‘mni yoki 2021- yilning shu davriga nisbatan 103,9 foizni, jumladan, fermer xo‘jaliklarida 411,0 mlrd so‘mni (114,1 foiz), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarida 8 920,6 mlrd so‘mni (102,2 foiz), qishloq xo‘jalik faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 252,8 mlrd so‘mni (181,9 foiz) tashkil qildi.

#### Viloyat tumanlarida chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha taqsimlanishi (foiz hisobida)



2022 - yilning 1 - oktabr holatiga o‘tgan yilning shu davriga nisbatan yirik shoxli qoramollar 101,7 foizni (jami 945,2 ming boshni tashkil qildi), shu jumladan sigirlar 102,1 foizni (360,7 ming bosh), qo‘y va echkilar 105,1 foizni (476,4 ming bosh), otlar 101,3 foizni (5,4 ming bosh), parrandalar 104,6 foizni (6271,5 ming bosh) tashkil qildi.

### **2022- yil 1- oktabr holatiga chorva mollari bosh sonlarining xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




■ Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

■ Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari

■ Fermer xo‘jaliklari

Barcha hududlarda chorvachilik mahsulotlari (go‘sht, sut, tuxum) ishlab chiqarishning o‘sishi asosan dehqon va fermer xo‘jaliklari hisobiga bo‘lib, go‘sht ishlab chiqarish umumiy hajmida ularning ulushi 96,5 foizni, sut ishlab chiqarishda 99,6 foizni, tuxum ishlab chiqarishda 77,3 foizni tashkil etdi.

## Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi



## 2022- yil 1- oktabr holatiga chorva mollari va parrandalar bosh soni

	<i>ming bosh</i>	<i>o‘sish sur’ati, %</i>
<b>Yirik shoxli qoramol</b>	<b>945,2</b>	<b>101,7</b>
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo‘jaliklarida	67,8	106,0
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarida	867,4	101,1
Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	10,0	140,2
<b>ulardan: sigirlar</b>	<b>360,7</b>	<b>102,1</b>
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo‘jaliklarida	27,5	117,1
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarida	329,2	100,6
Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	4,0	144,1

	<i>ming bosh</i>	<i>o'sish sur'ati, %</i>
<b>Qo'y va echkilar</b>	<b>476,4</b>	<b>105,1</b>
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklarida	70,0	115,1
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida	387,4	100,3
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	19,0	3,2 m.
<b>Otlar, bosh</b>	<b>5 390</b>	<b>101,3</b>
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklari	725	119,8
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari	4 614	98,4
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	51	188,9
<b>Parrandalar</b>	<b>6 271,5</b>	<b>104,6</b>
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklarida	843,5	113,6
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida	3 887,9	100,2
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	1 540,1	112,3

**2022- yil yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan  
chorvachilik mahsulotlari**


	<i>miqdori</i>	<i>o'sish sur'ati, %</i>
<b>Go'sht (tirik vaznda), <i>ming tonna</i></b>	<b>133,2</b>	<b>104,1</b>
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklarida	4,5	115,1
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida	124,1	100,7
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	4,6	5,6 m.
<b>Sut, <i>ming tonna</i></b>	<b>899,8</b>	<b>101,0</b>

*shu jumladan:*

	<i>miqdori</i>	<i>o'sish sur'ati, %</i>
Fermer xo'jaliklarida	41,9	119,4
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida	853,9	100,2
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	4,0	127,7
<b>Tuxum, mln dona</b>	<b>397,9</b>	<b>101,3</b>
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklarida	35,1	113,5
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida	272,6	100,3
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	90,2	99,9
<b>Jun, tonna</b>	<b>1184</b>	<b>101,6</b>
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklarida	122	113,0
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida	1054	100,1
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	8	2,0 m.
<b>Qorako'l teri, dona</b>	<b>8668</b>	<b>97,6</b>
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklarida	518	87,4
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida	8094	97,6
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	56	—

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida fermer xo'jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 3 645,9 mlrd.so'mni yoki 2021- yilning tegishli davriga nisbatan 95,4 foizni tashkil qildi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmida fermer xo'jaliklarining ulushi 22,9 foizni tashkil etdi.

**Fermer xo‘jaliklarida yetishtirilgan qishloq xo‘jalik mahsulotlarining yo‘nalishlar bo‘yicha taqsimlanishi (foizda)**



**■ chorvachilik**

**■ dehqonchilik**

2022- yilning 1- oktabr holatiga fermer xo‘jaliklarida 67,8 ming bosh yirik shoxli qoramol, shu jumladan, 27,5 ming bosh sigir, 70,0 ming bosh qo‘y va echki, 725 bosh ot, 843,5 ming bosh parranda mavjud bo‘lib, 2021 - yilning shu davriga nisbatan yirik shoxli qoramollar soni 106,0 foizni, shu jumladan, sigirlar 117,1 foizni, qo‘y va echkilar 115,1 foizni, otlar 119,8 foizni, parrandalar 113,6 foizni tashkil qildi.

**2022 - yilning yanvar-sentabr oylarida fermer xo‘jaliklarida asosiy turdagи qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish**

	yanvar-sentabr				2021- yanvar-sentabr oylariga nisbatan foiz hisobida	
	2021- yil		2022- yil			
	tonna	ishlab chiqarish umumiyligi hajmidagi ulushi, foiz	tonna	ishlab chiqarish umumiyligi hajmidagi ulushi, foiz		
Sabzavot	43964	10,8	43744	10,8	100,1	
Go‘sht, tirik vaznda	3909	3,1	4501	3,4	115,1	
Sut	35039	3,9	41841	4,7	119,4	
Tuxum, ming dona	30954	7,9	35128	8,8	113,5	
Jun, tonna	108	9,3	122	10,3	113,0	
Qorako‘l, dona	593	6,7	518	6,0	87,4	

**2022 - yilning yanvar-sentabr oylarida hududlar kesimida asosiy turdag'i qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish**


**Jami don (tonna)**

*Jami viloyat bo'yicha*  
363 237



**Boshqoli don (tonna)**

*Jami viloyat bo'yicha*  
291 178



**Bug'doy (tonna)**

*Jami viloyat bo'yicha*  
287 940



**Kartoshka (tonna)**

*Jami viloyat bo'yicha*  
128 126



**2022 - yilning yanvar- sentabr oylarida hududlar kesimida asosiy turdag'i qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish**

**Sabzavot (tonna)**

*Jami viloyat bo'yicha*  
**403 711**



**Poliz (tonna)**

*Jami viloyat bo'yicha*  
**107 187**



Bog'ot	58255
Urganch	48068
Xonqa	47499
Xiva	46227
Qo'shko'pir	39717
Yangiariq	36192
Gurlan	32341
Shovot	31636
Yangibozor	31158
Hazorasp	26259
Tuproqqa'l'a	3115
Xiva sh.	2294
Urganch sh.	950

Urganch	16823
Yangibozor	14553
Qo'shko'pir	13328
Xiva	11876
Xonqa	8963
Gurlan	8812
Yangiariq	8501
Hazorasp	7575
Shovot	7553
Bog'ot	7031
Tuproqqa'l'a	1839
Urganch sh.	302
Xiva sh.	31

**Meva va rezavorlar (tonna) Jami viloyat bo'yicha 129 900**



**Uzum (tonna)**

*Jami viloyat bo'yicha*  
**35 578**



Xiva	16210
Shovot	15849
Bog'ot	15846
Yangiariq	13898
Qo'shko'pir	13629
Urganch	12884
Hazorasp	12362
Yangibozor	11530
Xonqa	10800
Gurlan	4872
Tuproqqa'l'a	1582
Urganch sh.	245
Xiva sh.	193

Bog'ot	12418
Yangibozor	4350
Urganch	4332
Xiva	2883
Xonqa	2782
Hazorasp	2468
Shovot	1681
Qo'shko'pir	1472
Yangiariq	1184
Gurlan	1153
Tuproqqa'l'a	689
Xiva sh.	130
Urganch sh.	36

**2022- yil 1- oktabr holatiga hududlar kesimida  
chorva mollari va parrandalar bosh soni**

**Yirik shoxli qoramollar (bosh)**  
*Jami viloyat bo'yicha 945 249*



Xonqa	115657
Urganch	110259
Qo'shko'pir	90869
Gurlan	94968
Shovot	93215
Hazorasp	87596
Bog'ot	84769
Yangibozor	82190
Yangiariq	74107
Xiva	67529
Tuproqqal'a	20033
Xiva sh.	17559
Urganch sh.	6498

**shu jumladan, sigirlar (bosh)**  
*Jami viloyat bo'yicha 360 670*



Urganch	45446
Hazorasp	37890
Gurlan	37734
Xonqa	37160
Qo'shko'pir	36364
Shovot	32968
Yangibozor	30504
Yangiariq	30074
Xiva	28699
Bog'ot	28438
Tuproqqal'a	8659
Xiva sh.	3878
Urganch sh.	2856

**Qo'ylar va echkilar (bosh)**  
*Jami viloyat bo'yicha 476 353*



Qo'shko'pir	89075
Hazorasp	60833
Bog'ot	60019
Urganch	55300
Yangiariq	43037
Shovot	35965
Xonqa	29329
Tuproqqal'a	26538
Xiva	23021
Yangibozor	19056
Gurlan	18155
Xiva sh.	12375
Urganch sh.	3650

**Parrandalar (ming bosh)**  
*Jami viloyat bo'yicha 6271,5*




Urganch	1067,8
Xonqa	801,3
Bog'ot	687,4
Gurlan	577,6
Qo'shko'pir	568,2
Yangibozor	513,1
Shovot	503,0
Yangiariq	487,3
Hazorasp	450,9
Xiva	428,7
Tuproqqal'a	112,5
Urganch sh.	41,6
Xiva sh.	32,1

**2022 - yilning yanvar-sentabr oylarida hududlar kesimida asosiy turdag'i  
chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish**

**Go'sht (ming tonna)**

*Jami viloyat*


*bo'yicha 133,2*



**Sut (ming tonna)**

*Jami viloyat*

*bo'yicha 899,8*



**Tuxum (mln dona)**

*Jami viloyat*



*bo'yicha 397,9*




**Jun (tonna)**

*Jami viloyat bo'yicha*

*1184*



Baliq (tonna)  
Jami viloyat  
bo'yicha 13906,7



#### Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

**Qishloq xo'jaligi mahsulotlari** – hisobot davrida fermer xo'jaliklarida, dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda ishlab chiqarilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining jami qiymatini belgilab, qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishning umumiy hajmini ifodalaydi.

**Dehqonchilik mahsuloti** – hisobot davrida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi ekinlarining yalpi hosili va boshqa dehqonchilik mahsulotlarining qiymatini hamda ko'p yillik yosh ko'chatlarni o'stirish qiymati va yil boshidan yil oxirigacha tugallanmagan ishlab chiqarish qiymatlarining o'zgarishi yig'indisidir.

**Chorvachilik mahsuloti** – mollar, parrandalar va boshqa chorva mollarini o'stirish, sut, tuxum, jun, asal va boshqa chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish qiymatlarini o'z ichiga oladi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi indekslarini hisoblashda ularning solishtirma narxlardagi qiymatidan foydalaniladi.

**O'rmon xo'jaligi** – o'rmon va o'rmon resurslaridan foydalanish kabi faoliyat turlarini o'z ichiga oladi. O'rmon xo'jaliklari tomonidan olib borilayotgan ishlar o'rmonlarning holatini yaxshilash, ularni uzlusiz yangilash, zararkunandalar, kasalliklar va noqonuniy kesishdan himoya qilish, sanitariya va yong'inga qarshi dasturlarni ishlab chiqish kiradi. O'rmon xo'jaligi mahsulotlariga terak, eman, qayin, sosna, qoraqarag'ay va boshqa shu kabi daraxtlar ko'chatlarini olish va yetishtirish ham hisobga olinadi. Shuningdek, yovvoyi holda o'suvchi qo'ziqorin va tryufellar, rezavor mevalar, yong'oqlar va boshqalarni terib olingani ushbu tarmoqda hisobga olinadi.

**Baliqchilik xo'jaligi** – ovlangan baliq, suv bioresurslari va akvakultura sohalarining mahsuloti va ko'rsatilgan xizmatlar hajmini, shuningdek, ushbu sohani rivojlantirish, zaxiralarni ko'paytirish va yaxshilashni o'z ichiga oladi.

**Fermer xo'jaliklari** - ijara ga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish hamda qonun hujjatlarida taqiqilanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektiidir.